

**O‘ZBEKISTON VA FINLANDIYA JINOYAT PROTSESSUAL
QONUNCHILIGIDA VOYAGA YETMAGANLAR ISHLARINI YURITISHNING
QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI**

G‘ulomova Vasila Hasanboy qizi

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 2-kurs talabasi

E-mail: vasilagulamova@icloud.com

Ilmiy rabar: Soliyev Dilshod Baxtiyor o'g'li

JIDU Xalqaro huquq va ommaviy huquq

fanlari kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: dsoliyev9610@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritishda O'zbekiston Respublikasi va Finlandiya qonunchiligining o'ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida voyaga yetmaganlar uchun protsessual kafolatlar, so'roq qilish tartibi, ehtiyot choralarini qo'llash va ijtimoiy xodimning roli kabi masalalar o'rganilgan. Finlandiyaning "bir-martalik so'roq" tizimi va maxsus so'roq xonalari (Barnahus) tajribasini milliy qonunchilikka tatbiq etish bo'yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, jinoyat protsessi, Finlandiya, O'zbekiston, so'roq qilish, ijtimoiy xodim, ehtiyot choralarini, gumanizm.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ особенностей ведения уголовных дел в отношении несовершеннолетних по законодательству Республики Узбекистан и Финляндии. В ходе исследования изучены процессуальные гарантии для несовершеннолетних, порядок допроса, применение мер пресечения и роль социального работника. Выдвинуты научные предложения по внедрению в национальное законодательство опыта Финляндии по системе «однократного допроса» и специальных комнат для допроса (Barnahus).

Ключевые слова: несовершеннолетние, уголовный процесс, Финляндия, Узбекистан, допрос, социальный работник, меры пресечения, гуманизм.

Abstract. This article provides a comparative legal analysis of the specifics of juvenile

criminal proceedings under the legislation of the Republic of Uzbekistan and Finland. The study examines procedural guarantees for minors, interrogation procedures, the application of restrictive measures, and the role of social workers. Scientific proposals are put forward for the introduction of Finland's experience with the "one-time interrogation" system and special interrogation rooms (Barnahus) into national legislation.

Keywords: minors, criminal procedure, Finland, Uzbekistan, interrogation, social worker, restrictive measures, humanism.

Har qanday demokratik jamiyatning qonunchiligi rivoji, ushbu davlatning yosh avlodning (voyaga yetmaganlarning) kelajagi bilan bog'liq to'g'ri qarorlar qabul qilishi bilan tavsiflanadi. O'zbekiston Respublikasida ham aynan voyaga yetmaganlar uchun har bir qonunchilikda alohida normalar tatbiq qilingan. **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga qaraydigan bo'lsak, kodeksning 13-bo'limi aynan alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritishning 60-bobida voyaga yetmaganlarning¹⁵ jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish** ajratib ko'rsatilgan. Ushbu bo'lim va bobning umumiy toifadagi ishlarga kiritilganligi esa jamiyatda voyaga yetmaganlarga nisbatan alohida e'tibor berilishi ko'zda tutilgan. Milliy qonunchiligimizda ushbu toifadagi ishlarni ko'rish tartibi to'liq va batafsil moddalar orqali keltirib o'tilgan va jamiyatimiz ham ushbu toifadagi shaxslarga har doim imkoniyatlar berishga va ularning huquqbuzarliklarini oldini olishga qaratilgan ko'plab chora tartiblar olib bormoqda. Shunga qaramay, milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra: **2025-yilda 13-15 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning Jinoyatlar sodir etilishi bo'yicha ulushi 0.5 foizni tashkil qilsa, 15-18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar 5.1 foiz ulushni tashkil qilar ekan.**¹⁶ To'g'ri, bu raqamlar chetdan qaraganda juda kam ko'rinishi mumkin, biroq jamiyatda ushbu raqamlarni yanada kamytiruvchi chora-tadbirlar mavjud bo'lib, ularni amalda qo'llasak, ko'plab voyaga yetmaganlarni kelgusida xavfli jinoyatchilar bo'lib ketishini oldini olgan bo'lardik. Shu tufayli, ushbu mavzuni dunyoda gumanizm va adolatni eng yuqori o'ringa qo'yuvchi, eng xavfsiz davlatlardan biri hisoblangan Finlandiya qonunchiligi bo'yicha voyaga yetmaganlarning jinoyatlari yuzasidan ishlarni yuritilish tartibini ko'rib chiqamiz. Bu davlatdagi protsessual harakatlarni milliy qonunchiligimiz bilan taqqoslaymiz va qonunchiligimizga ushbu davlatdan samarali ishlashi mumkin bo'lgan, ilmiy amaliy taklifni ishlab chiqamiz.

Qiyosiy huquqiy tahlilni boshlashdan avval, aynan voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish JPK bo'yicha qay tartibda amalga oshirilishini ko'rib, tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq. **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual kodeksi 60-bobi 547-564-moddalarida**¹⁷ aynan voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritish tartibi haqida batafsil yozilgan. **JPK ning 548-moddasini**¹⁸ ko'radigan bo'lsak: voyaga jinoyat ishlarini ko'rishda surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasida JPK 82-84-moddalaridan tashqari isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar keltirilgan. Bular: 1) Voyaga yetmagan shaxsning aniq yoshi, 2) Shaxsiga xos xususiyatlari va uning sog'lig'ining holati, 3) Turmush va tarbiyalanish sharoitlari, 4)

¹⁵ <https://lex.uz/docs/-111460#-257098~:text=O%CA%BBN%20UCHINCHI%20BO%CA%BBLIM%0AALOHIDA,JINOYATLARI%20HAQIDAGI%20ISHLAR%20YURITISH>

¹⁶ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>

¹⁷ <https://lex.uz/docs/-111460#-257098~:text=O%CA%BBN%20UCHINCHI%20BO%CA%BBLIM%0AALOHIDA,JINOYATLARI%20HAQIDAGI%20ISHLAR%20YURITISH>

¹⁸ <https://lex.uz/docs/-111460#-257098~:text=moddalari%20asosida%20belgilanadi.-,548%2Dmodda.%20Voyaga%20yetmaganlarning%20jinoyatlari%20haqidagi%20ishlar%20bo%CA%BByicha%20isbotlanishi%20lozim%20bo%CA%BBlgan%20holatlar,-Oldingi%C2%A0tahrirga%C2%A0qarang>

Katta yoshli dalolatchilar bor yoki yo'qligi kabilardir. Bu ma'lumotlar voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini surishtiruvda, dastlabki tergovda va sudda har taraflama, odilona, qonun normalariga ko'ra ko'rilishini ta'minlaydi va voyaga yetmagan shaxsning ruhiyatiga doir buzilishlarni oldini olishga yordam beradi. Bilamizki, yurtimizda to'liq voyaga yetish yoshi 18 yoshni tashkil qiladi, shaxs o'z harakatlarining ijtimoiy xavflilik xususiyatlarini to'liq anglab yetishi uchun 18 yoshga kirishi lozim, hali 18ga to'lmay turib ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslar haqida yuqoridagi holatlar o'rganilmasdan tergov, surishtiruv va sud jarayonlari olib borilsa, kelgusida bu ularning ruhiyatiga qattiq ta'sir o'tkazishi mumkin. **Keyingi, 549-550-551-moddalar** ¹⁹voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar keltirilgan. Birinchi bo'lib, 549-moddaga ko'ra voyaga yetmaganlarning ishlarini yuritishda qonuniy vakil qatnashishi shart etib belgilangan. Qonuniy vakil bu voyaga yetmaganning otasi yoki onasi, ota-onasi bo'lmasa yaqin qarindoshlari bo'lishi mumkin. Qonuniy vakil, surishtiruvchi va tergovchining qaroridan so'ng, shaxs ishga gumon qilinuvchi va ayblanuvchi sifatida jalb etilgan paytdan boshlab birinchi so'roqda ishtirok etadi. Unga JPK ning 61-moddasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar tushuntirilishi shart. Jinoyat protsessi jarayonida qonuniy vakilning vazifasi voyaga yetmagan shaxsni himoya qilishdan, uning ruhiyati buzilishini oldini olishdan iborat hisoblanadi, agar qonuniy vakilning harakatlari voyaga yetmagan shaxsga qarshi ta'sir qilsa, ya'ni unga xavf tug'dirsa, qonuniy vakilning ishtiroki taqiqlanadi. JPK ning 550-moddasiga ko'ra esa voyaga yetmagan shaxslarning jinoyatlari yuzasidan ishlar ko'rilayotganda, himoyachi ishtiroki shartligi. Ya'ni voyaga yetmagan shaxs hali o'z huquqlarini va majburiyatlarini to'liq bilmasligi va anglamasligi mumkin, shuning uchun unga, uning qonuniy Vakili tomonidan himoyachi taklif etish, taklif etilmagan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga, birinchi so'roqqa qadar himoyachi ta'minlanishi shartligi ko'rsatilgan. JPK ning 551-moddasiga asosan, sudlanuvchi sifatida ishi olib borilayotgan voyaga yetmagan shaxsning sud majlisiga jalb etilishi lozim bo'lgan ishtirokchilar keltirilgan, masalan: voyaga yetmagan shaxsning ota-onasi, voyaga yetmagan shaxs o'qigan yoki ishlagan korxonaga, muassasa tashkilot rahbarlari, bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar sud tomonidan sud Majlisi joyi va vaqti haqida ogohlantiriladi. Demak, yuqorida keltirilgan barcha ishtirokchilar aynan voyaga yetmagan shaxsning manfaatlariga xizmat qilish uchun jalb etiladi. Hattoki, voyaga yetmagan shaxsga ayblov e'lon qilinayotgan paytda ham, **JPK 552-moddasiga asoslangan holda himoyachi va qonuniy vakilning ishtirok etishi majburiydir.** Keyingi holat voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining so'roq qilinishi bilan bog'liq, ya'ni ular so'roq qilinayotganda ham himoyachi va qonuniy vakilning ishtirokida so'roq qilinadi. Voyaga yetgan fuqarolar uchun umumiy so'roq vaqti 8 soatni tashkil etsa, **JPK 553-moddasiga** asosan voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilish, **1 soat dam va ovqatlanishni hisobga olmaganda 6 soatdan oshmaslikni**

¹⁹ <https://lex.uz/docs/-111460#-257098:~:text=organining%20vakiliga%20topshiriladi,-550%2Dmodda.%20Voyaga%20yetmaganlarning%20jinoyatlari%20haqidagi%20ishda%20himoyachining%20ishtirok%20etishini%20ta%CA%BCminlash,-Voyaga%20yetmagan%20shaxsni>

talab qiladi. Bu vaqtning davomiyligi ham aynan voyaga yetmaganlarning to'liq ruhiy va jismoniy holatlarini inobatga olgan holda qonunchilikka kiritilgan.

Bilamizki, voyaga yetmagan shaxslarning ruhiy holati, voyaga yetgan shaxslarnikidan farq qiladi. Aynan shuning uchun, surishtiruv va tergov paytida voyaga yetmagan shaxs qonuniy Vakili va himoyachisi bilan birga pedagog yoki psixolog ishtirok etishi mumkin. Qonunchilikka ko'ra, 16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs, agar o'z harakatlarini to'liq anglamasa va ularga psixolog va pedagog yordami juda zarur bo'lsa, himoyachi va qonuniy vakil iltimosiga ko'ra jalb etiladi. 16 yoshdan oshgan voyaga yetmagan shaxs, agar o'z harakatlarini to'liq anglab tursa, bunday holatda pedogog yoki psixolog surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra tayinlanadi. JPK ning 236-moddasida keltirilgan asoslar bo'lgan taqdirda, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan protsessual qonunchiligimizda belgilangan ehtiyot choralaridan biri qo'llanilishi **JPK 555-moddasida nazarda tutilgan**²⁰. Ehtiyot chorasi sifatida, voyaga yetmagan qonuniy vakiliga, ota-onasiga, homiylarning garoviga, agar u bolalar muassasasida tarbiyalangan bo'lsa, shu muassasaning Rahbari garoviga ham berilishi mumkin. Ehtiyot choralari qo'llanilgani haqida voyaga yetmagan shaxslarning qonuniy vakiliga, agar u bo'lmasa, yaqin qarindoshlariga habar qilinishi shart. **JPK ning 556-moddasiga**²¹ asosan, garovga berish tarzidagi ehtiyot chorasi, voyaga yetmaganning ota-onasi, homiysi, muassasa rahbariga topshirilishi, voyaga yetmagan ayblanuvchini, sudga, surishtiruv va tergov jarayonlariga o'z vaqtida kelib, unga huquq va majburiyatlar tushuntirilishini zimmasiga olganligi haqida yozma ravishda tasdiqlagan shaxs hisoblanadi. Ya'ni yuqoridagi shaxslar voyaga yetmaganni o'z garoviga olganligi haqida yozma tasdiq berishganida, ular voyaga yetmagan shaxsni protsessual majburiyatlarni bajarishini ta'minlashadi. Muntazam kasaligi, shaxs bilan munosabati yomonligi va ish bilan juda band ekanligi kabi jiddiy sabablar bilan yuqoridagi shaxslar voyaga yetmagan shaxsni o'z garovlariga olishdan bosh tortishlari mumkin. Agar voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ehtiyot choralari qo'llash asoslari bo'la turib, ularni ilgari yashagan joylarida qoldirish voyaga yetmagan shaxsni manfaatlariga zid bo'lsa, bu holatda shaxs bolalar muassasalariga topshirilishi mumkin. Bu norma jamiyatda voyaga yetmagan shaxsni manfaatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilingan. Keyingi ehtiyot chorasi bu – voyaga yetmagan shaxsni qamoqqa olish yoki uy qamog'I tayinlash. JPK ning 236-moddasida belgilangan umumiy asoslarda va unga 5 yildan ortiq OMQ tayinlanishi mumkin bo'lgan holatlarda yoki voyaga yetmagan shaxsning xulq-atvorini boshqa yo'l bilan to'g'rilash imkoni bo'lmasagina qo'llaniladi. Bunday ehtiyot choralari qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani prokurorning shaxsan o'zi ko'rib, sabablarini aniqlashi va

²⁰ [https://lex.uz/docs/-111460#:~:text=735/1141%2Dson\)-,555%2Dmodda.%20Voyaga%20yetmagan%20ayblanuvchiga%20nisbatan%20ehtiyot%20choralari,-Ushbu%20Kodeksning%20236](https://lex.uz/docs/-111460#:~:text=735/1141%2Dson)-,555%2Dmodda.%20Voyaga%20yetmagan%20ayblanuvchiga%20nisbatan%20ehtiyot%20choralari,-Ushbu%20Kodeksning%20236)

²¹ <https://lex.uz/docs/-111460#:~:text=qarindoshlariga%20xabar%20qilinadi,-,556%2Dmodda.%20Voyaga%20yetmagan%20shaxsni%20qarovga%20topshirish%20tartibi,-Oldingi%C2%A0tahrirga%C2%A0qarang>

qo'llashdan avval voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilishi lozimligi **JPK 558-moddasida ko'rsatilgan**²².

JPK ning 559-moddasiga ko'ra surishtiruv, dastlabki tergov tamonlangandan so'ng voyaga yetmagan shaxs va uning qonuniy Vakili ish materiallari bilan tanishtirilishi shart. Agar ish materillaridagi biror bir qism voyaga yetmagan uchun xavfli oqibatlar keltirib chiqarish ehtimoli mavjud bo'lsa, suishtiruvchi va tergovchi o'sha qismni voyaga yetmagan shaxsga ko'rsatmaslik haqida qaror chiqarishi mumkin. Surishtiruv va dastlabki tergov tamomlanganidan so'ng sud jarayoni boshlanadi, **JPK 560-moddasiga ko'ra voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlari yopiq sud majlislarida ko'rilishi aytilgan.** Undan tashqari sud majlisida, prokurorning ayblovi bilan bog'liq nutqida yoki boshqa holatlarda voyaga yetmagan shaxsning manfaatlari ko'zlangan holda, sud ajrim bilan voyaga yetmagan shaxsni sud zalidan chiqarib turishi ham mumkin. U sud zaliga qaytarilganda esa, ish mazmuni bo'yicha raislik qiluvchi voyaga yetmaganga tushuntirishlar beradi. Ya'ni, surishtiruv, dastlabki tergov va suddagi barcha protsessual harakatlar aynan voyaga yetmagan shaxsning manfaatlari ko'zlangan holda olib boriladi. Bu esa jamiyatimizda voyaga yetmaganlar huquqlari ustuvorligini to'liq aks ettiruvchi holatlar hisoblanadi. Keyingi so'nggi holat, sud hukmi yuzasidan, sud voyaga yetmagan shaxsga hukm chiqarishda umumiy asoslardan tashqari shartli hukm qilinsa yoki OMQ va OCH bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlasa, uni keyinchalik xulq-atvorini nazorat qilish bo'yicha tarbiyachi tayinlash masalalarini ham hal qilishi lozimdir. Umumiy asosda ushbu bobni o'rganish natijasida, voyaga yetmagan shaxslarning jinoyatlari yuzasidan ishlarning yuritilishi normal protsessual jarayonlarga qaraganda bir muncha soddalashtirilgan va ushbu toifadagi shaxslarning huquqlari va manfaatlariga moslashtirilganligini ko'rish mumkin, ya'ni bu voyaga yetmagan shaxs bilan har doim qonuniy vakilning bo'lishi, so'roq jarayoni bir muncha qisqarganligi yoki ularning ishlari yopiq sud majlislarida ko'rilganligi kabi holatlar yuqoridagi fikrlarga asos bo'la oladi.

Yuqoridagi tahlilda O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritish bo'yicha protsessual harakatlar tartibi ko'rib chiqildi. Protsessual qonunchiligimizni, umumdavlatlar Ichida yuqori darajada xavfsiz va gumanizm yuqori darajada rivojlangan davlat – Finlandiya bilan o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bir qancha protsessual amaliy tajribalarni ko'rib milliy qonunchilikka tadbiq etishimiz mumkin. O'xshashliklaridan boshlaydigan bo'lsak, JPK ning 548-moddasidan boshlaymiz: **Finlandiya skandinaviya huquq tizimiga** kiruvchi davlat bo'lganligi sababli, anglo sakson huquq tizimi va roman german huquq tizimi tartiblari aralashib ketgan, **Finlandiyada Criminal procedure Act** ²³ya'ni Jinoyat protsessual qonuni bo'lsa ham, voyaga yetmaganlar masalalariga taalluqli barcha normalarni ham ushbu qonundan topish ilojsiz bo'lishi mumkin. Shuning uchun ba'zi normalar uchun **Young Offenders Act** ²⁴– Yosh huquqbuzarlar haqidagi qonun qabul qilingan. Undan

²² [22.09.1994. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi](#)

²³ [main.pdf](#)

²⁴ <https://poliisi.fi/en/young-offender>



tashqari ushbu protsessual harakatlar **Children Welfare Act** ²⁵ bilan ham himoya qilinadi. Finlandiyada voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritilishi aynan bitta emas balki 3 ta qonun bilan himoya qilinishi milliy qonunchiligimizdan farq qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yuqorida JPK 548-moddasiga ko'ra aniqlanuvchi omillar ham aynan mana shu manbalarda alohida keltirib o'tilgan, Masalan: **Young offenders Act Chapter 4-5 larda** prokuror sudyaga, sud ishi ko'rilishidan avval Ijtimoiy hisobot topshirishi, u hisobotda ayblanuvchi shaxsiga doir bo'lgan barcha ma'lumotlar, yoshi, sog'lig'i, turmush tarzi kabilar keltirilishi nazarda tutilgan. **Child welfare act ga** asosan esa Tergovchi va Ijtimoiy xodim voyaga yetmagan bolaning oilaviy ahvolini to'liq o'rganib chiqishlarini nazarda tutgan.

JPK ning 549-moddasiga asosan qonuniy vakil **Finlandiya Criminal procedure actning 4-bobi 8-bo'limiga ko'ra**, voyaga yetmagan shaxs tergovida va so'rog'ining har bir bosqichida ishtirok etishi va xabardor qilinishi lozimligi aniq belgilab o'tilgan. **Undan tashqari, voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat ishlari tergov qilinganda CPA ning 2-bobi 3-bo'limiga ko'ra himoyachi tayinlanishi majburiyligi ko'rsatilgan.** Agar qonuniy vakil tomonidan himoyachi taklif qilinmasa, davlat tomonidan voyaga yetmagan shaxsga himoyachi advokat tayinlanishi ushbu moddada ko'rsatilgan. Ishtirok etuvchilardan psixolog va pedagog ishtirokini ko'radigan bo'lsak, YOA ga ko'ra, Finlandiyada aynan mana shu vazifalarni o'tovchi ijtimoiy xodim tayinlanishi nazarda tutilgan. Ya'ni mana shu ijtimoiy xodim Finlandiyada aynan psixolog va pedagog vazifalarini bajaradi va tergov so'ngida voyaga yetmagan ruhiy holati, jinoyat sodir etishga turtki bo'lgan sabab va sharoitlar, uning xulq-atvorini to'g'irlash masalalari bo'yicha yozma xulosa berar ekan va sud jarayonida mana shu ijtimoiy xodimning xulosasi jazo tayinlashda katta ahamiyat kasb etar ekan. Milliy qonunchilikda esa pedagog va psixologning ishtiroki zaruratga qarab yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra tayinlanadi. Agar voyaga yetmagan shaxsning tergov qilinayotganidan kelib chiqib aytish mumkinki, Finlandiyadagi Ijtimoiy xodimning roli amalda juda aktiv ko'rinadi. Keyingi o'xshashlik bu sud majlislarining yopiqligi. **CPA of Finland 5-bob 3-bo'limida** sud majlislari umumiy ochiq ko'rilishi nazarda tutilgan, biroq ushbu modda ikkinchi qismida istisno tarzida, voyaga yetmaganlar manfaatlari inobatga olingan holda ishlar yopiqlik sud majlislarida ko'rilishi belgilangan.

Ehtiyot choralari institutini mavjud sabablar bo'lgan vaqtda qo'llash Finlandiya qonunchiligida ham juda muhim hisoblanadi. **Finlandiya Coercive Measures Actga** ko'ra, qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi voyaga yetmaganlarga nisbatan faqatgina 10 yildan ko'p qamoq jazosi nazarda tutilib uni xulq-atvorini tartibga solishni iloji bo'lmay qolgan holatlardagina qo'llanilishi nazarda tutilgan. O'zbekiston bilan o'xshashligi har ikkala davlatda ham qamoq yoki uy qamog'I tarzidagi ehtiyot chorasi eng so'ngi chora sifatida ko'riladi va voyaga yetmagan shaxsning manfaatlaridan kelib chiqib prokuror tomonidan tayinlanadi. Finlandiya qonunchiligini o'rganish davomida bir qancha farqli jihatlarni ham ko'rish mumkin, ulardan eng asosiysi voyaga yetish yoshidir: Finlandiyada

²⁵ [Lastensuojelulaki 13](#)

Jinoiy javobgarlik uchun yosh chegarasi 15 yosh deb belgilangan ekan, ya'ni 15 yoshdan kichik voyaga yetmaganlar jinoyat ishlari ko'rilmay qoldirilar ekan, O'zbekistonda esa bu yosh 16 yoshni, ba'zi jinoyatlar uchun esa 14 yoshni tashkil etishi qat'iy Jinoyat kodeksida belgilab qo'yilgan. Undan tashqari Surishtiruv va dastlabki tergovda so'roq qilish tartibi Finlandiyada umuman boshqa shaklda malda oshirilar ekan. Ushbu tizim tahlilning taklif qismida batafsil ko'rib chiqiladi. Undan tashqari voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini tergov qilishda psixolog va pedagogning o'rnini bosuvchi ijtimoiy xodimning majburiyiligi asosiy farqlardan biri sifatida ko'riladi. Biroq, umumiy tizimni, tergov, yopiq sud majlislarini ko'radigan bo'lsak, katta farqli jihatlar yo'qligini ko'rish mumkin.

1) Finlandiyaning jinoyat protsessual qonuni normalarida protsessual tartibni va young offenders actni o'qish davomida shuni tushunish mumkinki, ushbu davlat qonunchiligida nazariy faktlardan ko'proq amaliy chora-tadbirlar keng tadbiiq qilinishi voyaga yetmaganlarning kelgusida jinoyatlar sodir etishlarini oldini olishga turtki bo'lar ekan. Ushbu amaliy protsessual jarayonlardan kelib chiqib, bir qancha takliflarimni milliy qonunchiligimizga moslashtirishni tadbiiq etmoqchiman. Ulardan birinchisi, yuqorida aytib o'tilganidek, CPA va YOAgaga asosan so'roq jarayonlarini o'tkazish tartibi bizni qonunchilikdan ko'ra farq qilar ekan. Finlandiya qonunchiligidan aynan so'roqqa oid amaliyotga takliflar kiritmoqchiman. Finlandiyada bir marttalik so'roq tizimi, 2011-yildan buyon samarali tashkil qilingan ekan, ya'ni 15 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir etganida, sudga qadar, tergov jarayonida faqatgina bir marttalik so'roq, qonuniy vakil, himoyachi, ijtimoiy hodim va tergovchi bilan o'tkazilar ekan. Ya'ni O'zbekistondagidek har bir so'roq uchun Finlandiyada aniq bir vaqt chegarasi belgilanmagan. Aynan protsessual qonunchilikning so'roq qilishga oid qismida aynan bir marta so'roq qilinishi nazarda tutilmagan bo'lsa ham, so'roq qilishga oid norma faqatgina bir marta ishlatilgan, shuning uchun ham qonunchilikda vaqt bo'yicha aniq cheklov belgilanmagan. Bu tizimda voyaga yetmagan jinoyat sodir etganlikda aynlanayotgan shaxs bir marttalik qonuniy asosda so'roq qilinadi, so'ng bu so'roq jarayoni videokamera orqali tasvirga olinib saqlab qo'yiladi. Keyinchalik, ushbu videolavha keyingi so'roq jarayonlarida yoki sud majlislarida qo'yilishi mumkin. Yuqorida aytilganidek, voyaga yetmagan shaxslar hali to'liq o'z harakatlarini ijtimoiy xavfliligini tushunmasliklari va anglamasliklari mumkin, shuning uchun ularning ko'rsatmalari ham turli vaqtda turli xil bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham voyaga yetmagan shaxs bilan bir marttalik so'roqni o'tkazib, keyinchalik tergov, surishtiruv va sud majlislarida bundan foydalanish mumkin. Fikrimcha, bu voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan ta'sir qiladigan protsessual bosimlarni oldini olishga yordam beradi. 2) Keyingi taklifim, so'roq qilish joylari haqida, ya'ni O'zbekiston Respublikasi JPK 96-moddasida so'roq qilish tegishli tartibda, surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazilgan joyda amalga oshirilishini nazarda tutadi, ya'ni bu huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xizmat xonalariga to'g'ri keladi. Biroq, Finlandiyada Your Offenders Actda so'roq joyi voyaga yetmagan shaxslarning jinoyatlari uchun alohida belgilab qo'yilgan. Bu, Barahnus deb atalgan aynan voyaga yetmaganlarning so'roq qilinishi uchun maxsus tayyorlangan

so'roq xonasi hisoblanar ekan. Bilamizki, voyaga yetmagan shaxs bilan mulqot qilishda juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish lozim, hattoki tashqi muhit ham uning ruhiyatiga qattiq ta'sir o'tkazishi mumkin. So'roq xonasida mavjud bo'lgan yuqori bosim esa voyaga yetmaganga katta ta'sir o'tkazishi mumkin. So'roq qilish uchun maxsus xonalar tayyorlanishi bilan bog'liq bo'lgan taklifimni nafaqat voyaga yetmagan ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchiga nisbatan balki, voyaga yetmagan guvohlarni so'roq qilishda ham qo'llash mumkin. Bu taklif chetdan qaraganda, juda mayda ko'rinishi mumkin, biroq bu kelajakda voyaga yetmaganlar bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab noxush holatlarni oldini olishga yordam berishi mumkin.

Umumiy Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston va Finlandiya qonunchiligida alohida toifadagi ishlarga kiruvchi, voyaga yetmaganlar jinoyatlari yuzasidan ishlarni yuritish protsessual umumiy tartibi deyarli o'xshash. Ya'ni ishni ko'rishda ishtirok etuvchi ishtirokchilar, jinoyat ishini yuritishda aniqlanishi lozim bo'lgan qo'shimcha faktlar, ehtiyot choralari va ularni qo'llash asoslari va shuningdek sud majlisining yopiq tarzda yuritilishi umumiy protsessual harakatlarning farq qilmasligini ko'rsatadi. Biroq, Finlandiya tajribasini o'rganish natijasida, milliy qonunchiligimizdan farq qiluvchi bir qancha amaliy chora tadbirlar qo'llanilib kelayotganligini guvohi bo'lish mumkin: qo'shimcha ishtirokchi sifatida ijtimoiy xodimning ishda qatnashish shartligi, so'roq vaqtining davomiyligi aniq belgilanmaganligi, jazo tayinlash uchun yosh chegarasining farq qilishi shular jumlasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Protsessual qonunchiligida aniq manbalarga asoslangan tizimli normalar yaratilgan bir paytda, Finlandiya o'zining samarali amaliy tajribalari orqali jamiyatida voyaga yetmaganlar jinoyatlarini oldini olmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham yuqorida keltirilgan umumiy 2025-yil holatiga ko'ra 5.6 foizli ulushni tashkil qilayotgan voyaga yetmaganlar jinoyatlarini kamaytirish va yuqoridagi qat'iy protsessual harakatlarni voyaga yetmagan va hali kelajagi oldinda bo'lgan shaxsga nisbatan Finlandiyaning samarali va tizimli tajribalarini targ'ib qilish orqali protsessual qonunchiligimizni boyitishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. (1994). O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi.

2. [Finlex](https://www.finlex.fi/en/legislation/translations/1997/eng/689). (1997). Criminal Procedure Act (689/1997). Retrieved May 11, 2026, from <https://www.finlex.fi/en/legislation/translations/1997/eng/689>

3. [Statistika agentligi](https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2). (n.d.). Huquqbuzarlik statistikasi. Retrieved May 11, 2026, from <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>

4. [Finnish Police](https://poliisi.fi/en/young-offender). (n.d.). Young offender. Retrieved May 11, 2026, from <https://poliisi.fi/en/young-offender>

5. [Finlex](https://www.finlex.fi/api/media/statute-foreign-language-translation/688269/mainPdf/main.pdf). (2007). Lastensuojelulaki 13. Retrieved May 11, 2026, from <https://www.finlex.fi/api/media/statute-foreign-language-translation/688269/mainPdf/main.pdf>

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

6. [Cairn.info](https://shs.cairn.info/article/E_RIDP_751_0315?lang=en). (n.d.). Finland / The Basis of Finnish Juvenile Criminal Justice. Retrieved May 11, 2026, from https://shs.cairn.info/article/E_RIDP_751_0315?lang=en
7. [O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali](https://gov.uz/oz/advice/633/document/2672). (n.d.). Voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq huquqiy hujjat. Retrieved May 11, 2026, from <https://gov.uz/oz/advice/633/document/2672>
8. [Lawgratis](https://www.lawgratis.com/blog-detail/juvenile-criminal-justice-framework-in-finland). (n.d.). Juvenile Criminal Justice Framework in Finland. Retrieved May 11, 2026, from <https://www.lawgratis.com/blog-detail/juvenile-criminal-justice-framework-in-finland>
9. [The University of Chicago Press Journals](https://www.journals.uchicago.edu/doi/pdf/10.1086/652199?download=true). (2010). Juvenile justice-related article. Retrieved May 11, 2026, from <https://www.journals.uchicago.edu/doi/pdf/10.1086/652199?download=true>
10. [Journal of Human Resources](https://jhr.uwpress.org/content/57/4/1276.full). (2022). Research article on juvenile justice. Retrieved May 11, 2026, from <https://jhr.uwpress.org/content/57/4/1276.full>

